



XIX ASR O'ZBEK ADABIYOTINING MUHAMMAD RIZO OGAHY G'AZALLARINING BADIY XUSUSIYATLARI

Abdushukurova Sug'diyona Jaxongir qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va germenetika kafedrasida 1- bosqich talabasi

Omonova M.M.

Ilmiy rahbari: PhD, v.b. dots

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15043145>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Mart 2025 yil

Ma'qullandi: 15-Mart 2025 yil

Nashr qilindi: 18-Mart 2025 yil

KEYWORDS

Ogahiy ijodi, Ogahiy g'azallari, mumtoz o'zbek adabiyoti, ishqiy g'azallar, badiiy san'atlar, tashbih va istiora, tajnis va tazod, shoir va tarixchi, Xiva adabiy muhiti, o'zbek mumtoz she'riyati, falsafiy mushohadalar, ijtimoiy tanqid, hijron va firoq, qiyos va o'xshatish, yor obrazi, fidoiy oshiq, g'am va iztirob, adolatsizlik mavzusi, mumtoz lirika.

ABSTRACT

Ushbu maqolada XIX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili, shoir, tarjimon va tarixchi Muhammad Rizo Ogahiy g'azallarining badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ogahiy ijodi mumtoz o'zbek poeziyasining yuksak namunalaridan biri bo'lib, uning she'rlari o'ziga xos obrazlilik, badiiy san'atlar va ma'noli ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Shuningdek, maqolada Ogahiy g'azallarining uslubiy jihatlari va uning Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab kabi shoirlar bilan adabiy bog'liqligi yoritiladi.

Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) – o'zbek adabiyotining yirik vakili, lirik shoir, tarjimon va tarixchi. U Xivaning Qiiyot qishlog'ida tug'ilgan va madrasada tahsil olib, arab, fors va turk tillarini o'zlashtirgan. Uning adabiy shakllanishida Sharq klassiklari, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi katta ahamiyat kasb etgan. Ogahiy ijodiy va ilmiy faoliyatini amakisi Munis Xorazmiy rahbarligida boshlagan. 1829-yilda Munis vafot etgach, Xiva xoni Ollohqulixon uni miroblik lavozimiga tayinlagan. Bu davrda u davlat ishlari bilan shug'ullangan va saroy hayotining murakkabliklarini yaqindan kuzatgan. 1845-yilda otdan yiqilib, jismoniy imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, ijoddan to'xtamagan. 1857-yildan miroblik lavozimini tark etib, hayotining so'nggi yillarini moddiy qiyinchiliklar va kasallik bilan o'tkazgan.

Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur bo'lib, uning eng yirik devoni – "Taviz ul-oshiqin" (1872) mumtoz o'zbek adabiyotining muhim yodgorliklaridan biridir. Ushbu devon 470 ta g'azal, 3 ta mustazod, 89 ta muxammas, 5 ta musaddas, 2 ta murabba, 4 ta musammon, 4 ta tarje'band, 7 ta qit'a, 80 ta ruboiy, 10 ta tuyuq, 1 ta mulamma, 4 ta chiston, 2 ta muammo, 4 ta masnaviy, 1 ta bahri tavi, 1 ta munojot, 1 ta oshiq va ma'shuq savol-javobi, 20 ta tarix, 19 ta qasida – jami 18 000 misradan iborat. Shu bilan birga, devonda "Ash'ori forsiy" bo'limi mavjud bo'lib, unda shoirning fors tilidagi 1300 misra she'ri jamlangan.

Ogahiy ijodida ishq mavzusi markaziy o'rin tutadi. Uning g'azallarida tasavvufiy ruh, insoniy kechinmalar va falsafiy mushohadalar mujassam. Shoir an'anaviy lirika vositasida faqat muhabbatni emas, balki jamiyatdagi muammolarni ham ifodalagan. Uning she'riyati Navoiy, Fuzuliy va Mashrab an'alariga yaqin bo'lib, badiiy san'atlar, tasviriy vositalarning mohirona qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli Ogahiy ijodi nafaqat badiiy jihatdan, balki tarixiy va madaniy nuqtayi nazardan ham bebaho hisoblanadi.

XIX asr o'zbek adabiyoti Sharq mumtoz she'riyatining yuksak an'alarini o'zida mujassam etgan holda rivojlangan davr bo'lib, bu jarayonda Muhammad Rizo Ogahiy alohida o'rin egallaydi. U nafaqat yirik shoir, balki tarixchi va tarjimon sifatida ham tanilgan. Ogahiy ijodining eng muhim qismi uning g'azallaridan iborat bo'lib, bu asarlar mumtoz o'zbek she'riyati an'alarini davom ettirish bilan birga, o'ziga xos badiiy xususiyatlarga ega. Uning g'azallarida obrazlilik, badiiy san'atlar, falsafiy fikrlar va ijtimoiy motivlar chuqur aks etgan. Ushbu ilmiy ishda Ogahiy g'azallarining badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ogahiy g'azallarining badiiy xususiyatlari haqida kitobda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uning she'riyatida Sharq mumtoz adabiy an'alarini chuqur o'z aksini topgan. Shoir o'z davrining nazariy poetik qarashlarini o'rgangan va ularni ijodida qo'llagan. Ogahiy g'azallarida badiiy san'atlar keng qo'llanilgan bo'lib, ular orasida tashbih, istiora, tajnis, tazod kabi usullar she'r musiqiyli va mazmunini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Shoirning g'azallarida ramziy obrazlar ko'p uchraydi. Yor va oshiq, gul va bulbul, sharob va mayxona kabi timsollar Ogahiy she'riyatining asosiy poetik vositalaridan hisoblanadi. Bu obrazlar orqali shoir o'zining chuqur falsafiy mushohadalarini ifodalagan. Uning g'azallarida axloqiy pand-nasihati ruhida fikrlar ham uchraydi. Shoir insoniylik, adolat, halollik kabi qadriyatlarni ulug'lab, soxtakorlik va riyozlarni hajv qiladi. Ba'zan hajviy ohangdagi g'azallarida nohaq podshohlar va mansabparast amaldorlarning ikkiyuzlamachiligini fosh qilgan. Ogahiy o'z davridagi adabiy-estetik qarashlarni o'z g'azallarida mahorat bilan aks ettirib, o'zbek mumtoz she'riyatining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan.

Ogahiy ijodida adabiy ta'sirlar ham sezilarli bo'lib, u Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab an'alarini davom ettirgan. Uning g'azallari poetik barkamolligi va badiiy yetukligi bilan ajralib turadi. Shoirning uslubi nafisligi, ravonligi va xalq og'zaki adabiyoti unsurlarini o'zida mujassam etishi bilan ham e'tiborlidir.

Muhammadrizo Ogahiy o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi bo'lib, hayoti davomida ham, vafotidan so'ng ham katta shuhrat qozongan shoirlardan biridir. Xiva xonligi davrida turkiy tilda eng ko'p nazmiy va nasriy asarlar yaratgan ijodkor sifatida tanilgan. U nafaqat mumtoz shoir, balki sarmahsul tarjimon, nozik didli tarixchi va mohir davlat arbobi edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-maydagi "Adiblar xiyoboni"ga tashrifi chog'ida Ogahiy ijodini o'rganish va targ'ib etish masalasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasiga topshirildi. Uning hayoti va ijodi yoshlar tarbiyasi uchun yuksak namunadir. Shoirning asarlari o'zbek adabiyotida chuqur badiiy va ma'naviy iz qoldirgan bo'lib, uning ijodiy merosi bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda.¹

Ogahiy g'azallari va ularning tahlili

Oshiq o'lding, ey ko'ngul, joning kerakmasmu sanga?

O'tg'a kirding jismi uryoning kerakmasmu sanga?

Istabon ul yuz tamoshasini ko'zdin damba-dam,

Qon to'karsan chashmi giryoning kerakmasmu sanga?

Hardam etkung orzu kofir ko'zi nazzorasin,
Qil hazarkim naqdi imoning kerakmasmu sanga?
Lutfung etding xasta ko'nghimdin darig', ey shohi husn,
Bu gadoyi zori hayroning kerakmasmu sanga?
O'zgalarga iltifoting aylading maxsus, bu
Mustahiq lutfu ehsoning kerakmasmu sanga?
Sel g'amdin xonavayron o'ldimu yod etmading,
Aytkim bu xonavayrining kerakmasmu sanga?
Ogahiy holin ko'rub doim tag'ofil qilg'osan,
Shoiri donoyi davroning kerakmasmu sanga?

Bu g'azalda oshiqning iztiroblari, uning yor ishqidagi fidokorligi va natijada boshdan kechirayotgan ruhiy kechinmalari chuqur ifodalangan. Shoir oshiqning holatini shunchalik ta'sirchan va jonli tasvirlaydiki, misralar inson qalbidagi og'riq, hijron va ma'sum bir so'roqlarga to'lib ketgan. G'azalning birinchi misrasida shoir ko'ngulni oshiq sifatida tasvirlaydi va unga jon kerak emasmi, deb so'roq qiladi. Oshiqning holati shunchalik og'irki, u o'z jonidan ham kechishga tayyor. Keyingi misralarda oshiqning o'tga kirishi, ya'ni muhabbat yo'lida har qanday mashaqqatga duch kelishi tasvirlanadi. Shoir bu yerda klassik mumtoz she'riyatga xos bo'lgan tashbih va istioralarni qo'llagan. "Jismi uryon" iborasi oshiqning barcha dunyoviy qulayliklardan, hatto o'zidan kechganini anglatadi.

Ko'z yoshlari g'am girdobida qon to'kishga tenglashtiriladi. Bu yerda chashmi giryon (yig'loqi ko'z) obrazi yor ishqidagi iztirobni kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ko'zning qon to'kishi oshiqning chekayotgan g'amini ifodalovchi kuchli poetik vositadir. Oshiqning yorni ko'rishga bo'lgan ishtiyoqi uning ruhiy iztiroblarini yanada oshiradi.

Navbatdagi misralarda ishq va e'tiqod orasidagi ziddiyat ko'rinadi. Oshiqning yorni orzu qilishi kofirning beparvolik bilan qarashiga o'xshatiladi va shu orqali sevgi va dindan voz kechish xavfi haqida ogohlantiriladi. Bu yerda muhabbat va ma'naviyat orasidagi murakkab bog'liqlik seziladi. Shoir oshiqning yo'lida e'tiqod va vijdon ham sinovdan o'tishini ko'rsatadi. Shoh husnning – ya'ni go'zallik timsolining oshiq yuragiga e'tiborsizligi oshiqni yanada ruhiy tanazzulga yetaklaydi. Shoir yorning beparvoligi va uning g'ariblarga, ojizlarga e'tibor bermasligini ta'kidlab, oshiqning holatini yanada fojiali qiladi. Bu yerda oshiq gado obrazida tasvirlanadi, yor esa shoh sifatida gavdalanadi. Shoir klassik mumtoz she'riyatga xos bo'lgan gado va shoh oppozitsiyasini ishlatib, sevgining tengsizligini ifodalagan. Yorning o'zgalarga iltifoti oshiqni og'riqli kechinmalarga soladi. Oshiq o'ziga emas, boshqalarga ko'rsatilayotgan e'tiborni sezib, bunday adolatsizlikni ranj bilan qabul qiladi. G'azalda yor va oshiq o'rtasidagi masofa nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham tasvirlanadi. Bu esa g'azalning lirikasini yanada ta'sirchan qiladi.

Shoirning g'amdan xonavayron bo'lishi va yorni bu holga befarqligi dramatik tasvir vositasida berilgan. "Xonavayron" so'zi nafaqat jismoniy vayronagarchilikni, balki oshiqning ichki dunyosidagi buzilish va qulashni ham anglatadi. Yorning bu holatdan bexabar yoki beparvo bo'lishi oshiqning iztirobini yanada kuchaytiradi. G'azalning yakuniy baytida Ogahiy o'z holini yor oldida ko'rsatib, uning beparvoligidan shikoyat qiladi. Shoir o'zini davrning dono shoirlaridan biri deb atab, yorning bunday ulug' iste'dod egasini e'tiborsiz qoldirayotganini kinoyalilik tarzda bayon etadi. Bu nafaqat oshiq sifatidagi, balki shoir sifatidagi e'tiroz hamdir. Ogahiy g'azallariga xos bo'lgan hajviy, istehzoli ohang bu baytda sezilarli

darajada namoyon bo'lgan. G'azalning umumiy tuzilishi va badiiy jihatlarini tahlil qilganda, unda mumtoz o'zbek she'riyatining eng yaxshi an'analari, xususan, Navoiy, Fuzuliy va Mashrab she'riyatidan kelib chiqqan poetik usullar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Shoir badiiy tasvir vositalaridan juda mahorat bilan foydalangan, tashbih va istioralar oshiqning kechinmalarini chuqurroq his qilishga yordam beradi. Uning g'azali nafaqat ishqiy iztirobni, balki insonning ichki kechinmalari, sevgining ruhiy va falsafiy qirralarini aks ettiruvchi badiiy obida sifatida ham qabul qilinadi.

Mushkin qoshingning hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun nas keltirur nun eltibon sod ustina.
Qilg'il tomosho qomati, zebosi birlan orazin,
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.
Nozu ado-yu g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.
Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.
Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shomu sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.
Boshimg'a yog'g'on g'am toshi mingdin biricha bo'lmag'ay,
Gardun agar ming besutun yog'dursa Farhod ustina.
Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamonu yaxshini –
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.
Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.
Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zor noshod ustina.

Bu g'azalda oshiqning iztiroblari, yorning beparvoligi va qismatning shafqatsizligi ifodalangan. Ogahiy ilk misradanoq mushkin qoshiqning shaklini chashmi jallod (qatl qiluvchi ko'z) bilan taqqoslab, yorning qahrli nigohi oshiqning hayotiga tahdid solayotganini tasvirlaydi. Qur'oni Karimdagi nun va sod harflari orqali yorning go'zalligini tasvirlash bilan birga, qotillik uchun keltiriladigan dalil sifatida ham ramziy ma'no yuklangan. Ogahiy yorni ko'rishga bo'lgan ishtiyoqni ta'kidlarkan, uning qomatini shamshod, yuzini gulga qiyoslaydi. Shamshodning mustahkamligi va go'zalligi yor husnining so'z bilan ifodalanishi mumkin bo'lmagan darajada mukammalligini ko'rsatadi. Yorning nazar tashlashlari oshiq uchun tinimsiz ofat bo'lib, uni har damda halokatga eltadi. Oshiqning holati shunchalik ayanchlik, u o'z jonini asrashni imkonsiz deb biladi, chunki yor nigohi har lahza adolatsizlik bilan unga qaratilgan.

Ogahiyning ishqiy azobi yorning yuzidan taralayotgan nur ta'sirida yanada ortib, uni shaydo bulbul kabi tinimsiz faryod chekishga undaydi. Ishq azobining og'irligi shunchalik zo'rki, hatto tog' kabi mustahkam Farhod ustiga ham minglab g'am toshlari yog'lsa, oshiq boshiga tushgan zahmatning bir parchasi ham bo'lolmaydi. Bu yerda Farhod obrazining kiritilishi oshiqning ishq yo'lidagi fidokorligini yanada kuchaytirib ko'rsatadi.

Ogahiy dunyo adolatsizligi, ayniqsa, hukmdorlarning adolatli bo'lishi lozimligini ta'kidlab, mehr va inoyat barcha odamlarga teng tushishini ta'kidlaydi. Bu orqali oshiq yordan ham tenglik va mehr kutishini istihola bilan ifodalaydi. Oxirgi baytda shoir inson umrining

foniyiligini eslatib, hatto Sulaymondek qudratli podshohning ham taxti oxir-oqibat shamolga yem bo'lishini aytadi. Bu tasvir dunyoning beqarorligi va hayotning o'tkinchiligi haqidagi falsafiy mushohadani o'z ichiga oladi. Shoir o'z holatining og'irligini yorqin ifodalab, g'azalni kinoyali yakunlaydi. U g'am va alam og'ushida qolganini, hatto og'iz ochib gapirishga ham jur'ati yetmayotganini bildiradi. Uning so'zlari faryod bilan to'lib, badiiy vositalar orqali oshiqning ichki kechinmalari chuqur ochib berilgan. Ishqiy azob, insoniy ojizlik, dunyoning beqarorligi va yorning beparvoligi g'azalning asosiy g'oyalarini tashkil etadi. Shoir mumtoz o'zbek she'riyatining an'anaviy ramzlaridan foydalanib, yorning husnini ideallashtiradi, ishqni inson qalbini larzaga soluvchi qudratli tuyg'u sifatida tasvirlaydi va muhabbatning fojiali qirralarini ochib beradi.

Ogahiy o'z hayoti va taqdiridan nolib, yaxshilar davrasida qadrsizligi, yomonlar esa unga bepisand munosabatda bo'lishini ifoda etadi. Shoir ko'z yoshlarini to'xtata olmasligini ta'kidlab, hayotida o'ziga hamdard va hurmat bilan qaraydigan inson topa olmaganini afsus bilan aytadi. Uning kechinmalarida jamiyatdagi adolatsizlik va ikkiyuzlamachilik tasvirlanadi. Shoir atrofida faqat o'z manfaatlarini o'ylaydi, lekin u ulardan biror naf topolmaydi. Bu yerda Ogahiy hayotning shafqatsiz qonuniyatlarini anglab yetgani va insonlar orasida haqiqiy do'stlik yo'qligidan shikoyat qilgani seziladi. U o'z taqdirining yolg'izligini, hayotining iztiroblarga to'la ekanini falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Shoir sevgi va yor obrazini ham esga oladi. Yorning nigohi o'ldiruvchi zahar bo'lsa-da, lablaridan chiqayotgan so'zlar najot bergandek tuyuladi. Bu tasvir muhabbatning ikki tomonlama – baxt va iztirob, hayot va halokat o'rtasidagi muvozanatini ko'rsatadi. U sevgan yorning go'zalligi va so'zlarining maftunkorligini tasvirlaydi, lekin bu sevgi shoirga xotirjamlik bermaydi. Yor uning dardiga malham bo'lish o'rniga, yanada iztirob berayotgani anglashiladi. Shoir firoq va hijronni yorqin tasvirlab, kechasi va tongi lahzalarining qanchalik azobli kechishini bayon etadi. Tun yorning sochlariga o'xshatilsa, tong esa ko'z yoshlari ichra kutilgan najot sifatida talqin qilinadi. Ammo yorning jamoliga erishish qiyin bo'lsa, quyosh va oy uning uchun hech narsani anglatmaydi. Bu tasvir orqali shoir sevgi va hayot o'rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Ogahiy g'am va iztiroblarni jang maydonidagi tulpor tasviri orqali ham tasvirlaydi. U o'zining yuragidagi alamlarni beto'xtov chopayotgan ot bilan qiyoslaydi. G'am va hasrat oshiqni har tomonlama ezayotgan bo'lsa-da, u bu holatdan qutula olmaydi. Bu o'ziga xos tasvir orqali shoir sevgi va hayot o'rtasidagi kurashni aks ettiradi. So'nggi bandda Ogahiy sevgan yorning go'zalligi oldida hushidan ketishi, undan maftunkor bir narsa yo'qligini ta'kidlaydi. U yorga tik qaray olmaydi, chunki uning go'zalligi va jozibasi hayratga soladi. Yor Navoiyga ham tik qaray olmasligi kerak, chunki Navoiy ijodi sevgining eng yuksak ifodasidir. Bu yerda shoir Alisher Navoiyni ilhom va go'zallik timsoli sifatida ulug'laydi.

Ushbu muxammasning badiiy xususiyatlari juda yuksak bo'lib, shoir tashbih, istiora va allegoriyalardan mohirlik bilan foydalangan. Unda sevgining murakkab qirralari, insoniy iztiroblar va adolatsiz dunyo haqidagi fikrlar o'ziga xos poetik uslub bilan berilgan. Ogahiy bu asarida Navoiyga sadoqatini bildirgan holda, o'z dardini ham chuqur badiiy mahorat bilan ifoda etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Огахий, М. Огахий мусамматлари. – Toshkent: "mumtoz so'z" 2019.
2. Маллаев, Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1956.
3. NamDU_ARM_10028 Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари, Toshkent, 1960

4. Абдуллаев, Ф. Огаҳий ижодида ижтимоий мотивлар. – Тошкент, 1972.
5. Алибоев, А. Огаҳий шеърлятида бадий тасвир воситалари. – Тошкент: Университет нашриёти, 1995.
6. Навоий, А. Муҳокамат ул-луғатайн. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2001.
7. Юсуфов, Б. Хива адабий муҳити ва Огаҳий ижоди. – Тошкент: Академнашр, 2010.

